



FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 17-aprel

54-11-154-F/25

Buvayda tuman hokimligi

Farg'ona viloyati Buvayda tuman hokimligida davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 276-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. Tuman hokimligida davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq;
 - Tuman hokimligining xarid komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Tuman hokiminining barcha o'rinnbosarlari, guruh rahbarlari va bo'lim boshliqlari, Tuman hokimligining xo'jalik ishlari mudiri (lavozimiga ko'ra) bilan birgalikda Tuman hokimligining xarid komissiyasi faoliyatini samarali tashkil etish, korrupsiya va kafillanganlik holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rsin.
3. Ushbu farmoyish qabul qilinishi munosabati bilan:

Tuman hokiminining 2020-yil 27-noyabrdagi 314-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish tuman hokiminining birinchi o'rinnbosari D.Maxsitaliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



**IBRAGIMOV
BEXZOD.ODILJONOVICH**

Buvayda tumani hokimining
2025-yil 17-apreldagi
54-11-154-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**Tuman hokimligida davlat xaridlarini o‘tkazish to‘g‘risidagi
Nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Farg‘ona viloyati Buvayda tuman hokimligida tashkil etiladigan tanlov (tender) o‘tkazish bo‘yicha xarid komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – “Xarid komissiyasi”) vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatini tashkil

etish tartibini belgilaydi.

2. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari g‘olibini tanlash to‘g‘risida

qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan kollegial organi hisoblanadi.

Xarid komissiyasi ishining asosiy maqsadi ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan hamda davlat xaridlari

raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan

iborat.

3. Xarid komissiyasi – Farg‘ona viloyati Buvayda tuman hokimligi hamda tuman hokimligi tasarrufidagi muassasalar (keyingi o‘rinlarda – Hokimlik) huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatadi, hokimning tegishli farmoyishi bilan shakllantiriladi.

4. Xarid komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari, boshqa qonun hujjatlari, hokimning tegishli farmoyishi (buyrug‘i, qarori), topshiriqlari hamda ushbu Nizomga amal qiladi.

5. Xarid qilish tartib-taomillari:

Xarid komissiyasi vakillari, zarur bo‘lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega ekspertlar jalg etilgan holda shakllantiriladi;

davlat xaridlari hokimlikning budget hamda budgetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

2-bob. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari

6. Xarid komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tanlov (tender) hujjatlarini kelishish;

takliflar qabul qilinadigan muddatlarni belgilash;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilash;

takliflarni baholash mezonlarini belgilash va unga asosan baholash;

taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta’minalash shaklini belgilash;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochish;

malaka tanlovini o‘tkazish, agar tanlov (tender) hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo‘lsa;

xarid qilish tartib-taomillarini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirish;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari ijrochisini va zaxira ijrochisini belgilash yoki savdoni amalga oshmagan deb topish.

Xarid komissiyasi qonun hujjatlari va ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib

boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

7. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqadi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining ta’sis hujjatlari va shartnoma tuzish vakolatini tahlil qiladi;

soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligini tekshiradi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilmaganligini tekshiradi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi haqida insofsiz ijrochilar yagona reyestrida ma’lumot mavjud emasligini aniqlaydi;

ochiq axborot manbalarida ehtimoli bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida ma’lumotlar mavjud emasligi aniqlaydi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining rasmiy veb-saytidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

Hokimlikning xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi bilan o‘zaro hamkorligi tarixini o‘rganadi;

xarid ishtirokchilarida shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, kadrlarga oid va boshqa resurslar mavjudligini tahlil qiladi.

xarid ishtirokchilarining o‘zaro affillanganligining tekshiradi;

manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi o‘rganiladi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi sayti mavjudligi va undagi ma’lumotlarni o‘rganadi;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida ma’lumotlarni o‘rganadi;

korrupsiyaga qarshi hujjatlarni tekshiradi (taqdim etilgan yoki saytdagi) (agar mavjud bo‘lsa).

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish Hokimlik tomonidan davlat xaridlarini amalga oshirish doirasida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarini o‘rganish jarayoni

bo‘yicha yo‘riqnomaga asosan amalga oshiriladi.

3-bob. Xarid komissiyasi ishini tashkil qilish

8. Davlat xaridlarini tanlov (tender) orqali amalga oshirish uchun doimiy faoliyat yurituvchi Xarid komissiyasi tuziladi.

Qonunchilikda boshqacha holat nazarda tutilgan bo‘lmasa, Xarid komissiyasining tarkibi mazkur hokimlikning boshqaruv xodimlaridan tashkil etiladi.

9. Xarid komissiyasi toq sonli a’zolardan iborat bo‘ladi, uning a’zolari tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomilining turiga bog‘liq bo‘ladi hamda olinayotgan tovarning (ishning, xizmatning) xususiyatlari inobatga olingan holda o‘zgartirilishi mumkin.

Bunda:

Davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachingining xodimlari orasidan kamida besh nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi;

Davlat xaridini tender o'tkazish orqali amalga oshirish uchun kamidayetti nafar a'zodan iborat tarkibda xarid komissiyasi tuziladi.

10. Xarid komissiyasining ishiga rais rahbarlik qiladi, u Xarid komissiyasi majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va Xarid komissiyasi

tomonidan qabul qilingan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek Xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalarini imzolaydi.

Xarid komissiyasi raisi quyidagi vakolatlarga ega:

Xarid komissiyasi majlislarini chaqirish va majlis kun tartibini belgilash;

Xarid komissiyasi qabul qilgan qarorlar bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish;

Xarid komissiya a'zolari tomonidan o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar bajarilishini muvofiqlashtirish;

Xarid komissiya a'zolari faoliyatini nazorat qilish;

Xarid komissiyasi samarali ishlashi uchun zarur bo'ladigan boshqa choralarni qo'rish.

11. Xarid komissiyasining majlisini rais, u bo'limgan taqdirda esa uning o'rribosari olib boradi. Agar majlisda xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, xarid komissiyasi vakolatli hisoblanadi.

Shuningdek, xarid komissiyasi a'zolari ishdan bo'shanganda, uning o'rnini shu lavozimga yangi ishga olingan xodim to'ldiradi.

12. Xarid komissiyasining ishchi organi vazifasini Ishlar boshqarmasi amalga oshiradi.

13. Xarid komissiyasining tezkor faoliyati uning ovoz berish huquqiga ega bo'limgan mas'ul kotib tomonidan tashkil qilinadi.

14. Muayyan bir davlat xaridini amalga oshirish xarid komissiyasi a'zolarida davlat xaridi ishtirokchisi bilan manfaatlar to'qnashuvi yoki Xarid komissiyasi a'zolarining affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlangan taqdirda, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

15. Mazkur Nizomning 14-bandida ko‘rsatilgan shaxslarni xarid komissiyasi tarkibiga kiritilishini oldini olish xarid komissiyasi a’zolarini rad qilish va o‘zini o‘zi rad etish yo‘li bilan amalgalashiriladi.

16. Mazkur Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan shaxslar xarid komissiyasi tarkibiga kiritilganligi aniqlanganda Komissiya raisi bunday shaxsni muayyan xaridni o‘tkazgunga qadar rad etish haqida qaror qabul qilishi shart.

Komissiya a’zosini rad etish haqidagi qaror yozma shaklda rasmiylashtiriladi va rad etishga asos bo‘luvchi holatlar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi lozim.

17. Ushbu Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan qaror qabul qilingan taqdirda, shuningdek xarid komissiyasi a’zosi o‘zini o‘zi rad etgan taqdirda yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda Komissiya a’zosi ma’lum xaridlar bo‘yicha Komissiya yig‘ilishlarida qatnashishga haqli emas.

18. Xarid komissiyasi a’zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo‘lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a’zosi bu masala ko‘tarilgan majlisda o‘zini o‘zi rad etishi va mazkur masalabo‘yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

19. Mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan kvorum mavjud emasligi tufayli Xarid komissiyasi a’zosini vaqtincha almashtirish zarur bo‘lganda Xarid komissiyasi a’zosini vaqtincha almashtirish haqidagi qaror Hokimlik rahbarining farmoyishi (buyrug‘i, qarori) bilan Xarid komissiyasi majlisi bayonnomasiga tegishli ma’lumotlar kiritilgan holda rasmiylashtiriladi.

4-bob. Xarid komissiyasi va a’zolarining huquq va majburiyatları

20. Xarid komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

a) tanlov ishtirokchisidan uning malakaviy talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi dalillarni hujjat shaklida taqdim etilishini talab qilish;

b) o‘z qarori bilan quyidagilarga asosan tanlov (tender) ishtirokchilarini tanlovida (tenderda) ishtirok etishni davom ettirishdan chetlatish va ularning takliflarini ko‘rib chiqishni davom ettirmasdan qaytarib berishi mumkin:

insofsiz ijrochilar yagona reyestrida tanlov ishtirokchilari haqidagi ma’lumotlar aniqlanganda;

tanlov ishtirokchilarda soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzi mavjudligi aniqlanganda;

agar tanlov ishtirokchisida qonunchilikni buzadigan tarzda adolatsiz raqobat ustunligi yoki manfaatlar to‘qnashushi bo‘lganda;

agar tanlov ishtirokchisi tomonidan biron-bir harakatni sodir etishga, qaror qabul qilishga yoki tanlov savdolarini o‘tkazish jarayonida buyurtmachining muayyan bir xarid qilish tartib-taomilini o‘tkazishga ta’sir qilish maqsadida buyurtmachining hozirgi yoki avvalgi xodimiga yoki Xarid komissiyasining a’zosiga har qanday ko‘rinishdagi mukofotni bevosita yoki bilvosita taklif qilganda;

tanlov ishtirokchisi takliflarida O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan talablarning, savdo ob’ektining tanlov hujjatlarida qayd etilgan shartlarning buzilishi aniqlanganda, shuningdek, noto‘g‘ri axborot taqdim etilganda;

agar tanlov ishtirokchisi qayta tashkil etish (ajratish, qo‘sish), tugatish yoki bankrotlik (mol-mulkini xatlash) jarayonida bo‘lganda;

ta’sis hujjatlari, moliyaviy jihatdan qatnashish, xolding yoki boshqacha shaklda tanlov ishtirokchilari bir-biriga tashkiliy-huquqiy yoki moliyaviy jihatdan bog‘liq bo‘lganda;

v) xarid tashabbuskori, ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha har qanday ma’lumot va hujjatlarni so‘rab olish;

g) tender/tanlov ishtirokchilariga u yoki bu taklifni rad etish sabablarini tushuntirib berish. Bunda takliflarning narx va ishlarni bajarish muddati bilan birga mazmunini o‘zgartiradigan tushuntirishlar berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

21. Xarid komissiyasining a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan barcha hujjatlar va ma’lumotlar bilan tanishish;

xarid komissiyasi majlislarining kun tartibidagi masalalar bo‘yicha so‘zga chiqish;

xarid jarayonida tuziladigan bayonnomalar mazmunining to‘g‘riligini tekshirish;

ovozi berishda yoqlab ovoz berishi, qarshi ovoz berishi yoki unda ishtirok etishdan bosh tortishi mumkin.

Xarid komissiyasining majlislarida o‘zining yozma fikrini bayon etish.

22. Xarid komissiyasining a’zolari quyidagilarga majbur:

uzrli holatlardan (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, xizmat safari va boshqa sabablar) tashqari Xarid komissiyasining majlislarida shaxsan ishtirok etish;

qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq xaridlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish tartib-taomillariga rioya qilish;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarini tekshirish bo'yicha zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarish;

mazkur Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan biron-bir holatlar kelib chiqqanda, Xarid komissiyasi majlisining kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha ovoz berishda qatnashmasligi, o'zini o'zi rad etishi va uning sabablari haqida komissiya raisiga xabar berishi;

o'z vakolati doirasida xolisona qarorlar qabul qilish.

23. Xarid komissiyasining raisi quyidagi huquqlarga ega:

xarid komissiyasi ishiga umumiy rahbarlik qilish va mazkur Nizom talablari bajarilishini ta'minlash;

xarid komissiyasi majlisni vakolatli deb e'lon qilish;

xarid komissiyasining majlisini ochish va uni olib orish, tanaffuslar e'lon qilish;

muhokama qilinadigan masalalarni ko'rib chiqish tartibini belgilash;

xarid komissiyasining a'zolari o'rtasida davlat xaridlari ishtirokchisini tekshirish bo'yicha vazifalarni taqsimlash;

zarurat bo'lganda Xarid komissiyasi majlisiga, Xarid komissiyasining ishiga ekspertlarni jalb qilish haqidagi masalani muhokamaga olib chiqish;

davlat xaridlari ishtirokchisini tekshirish to'g'risidagi hisobotni o'qib eshittirish;

xarid komissiyasining bayonnomasini tasdiqlash;

mazkur Nizomning 14-bandida belgilangan hollarda Xarid komissiyasi a'zolarini rad qilish haqida qaror chiqarish.

Xarid komissiyasining raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

24. Xarid komissiyasi kotibi tashkiliy-texnik tavsifdagi funksiyalarini bajaradi, jumladan, Komissiya a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnomalarni yuritadi,

Komissiya a'zolariga xarid komissiyasining navbatdagi majlisi haqida avvaldan xabar beradi.

Majlisda xarid komissiyasi kotibi ishtirok eta olmaganda uning funksiyalarini Xarid komissiyasi raisi tomonidan tayinlangan komissiyasi a'zolaridan biri bajaradi.

25. Xarid komissiyasi tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha ishtirokchilar uchun majburiydir.

5-bob. Xarid komissiyasi tomonidan tanlov (tender) savdolarini o‘tkazish

tartibi

26. Xarid komissiyasi o‘tkazilayotgan tanlov (tender) savdosi doirasida tanlovga (tender) oid takliflarni tayyorlash muddati haqida qaror qabul qiladi va takliflarni qabul qilishning so‘nggi muddatini belgilaydi. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni taqdim etish muddatini uzaytirish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Bunda takliflarni tayyorlash muddati maxsus axborot portalida va boshqa ommaviy axborot vositalarida birinchi e’lon berilgan vaqtdan boshlab o‘n kundan kam bo‘lmasligi kerak.

27. Xarid komissiyasi xarid qilish tartib-taomili ishtirokchisi tomonidan kiritiladigan tanlovga oid takliflarni kiritish tartibini, hajmini va kafolat turini (zakalat yoki bank kafolati) belgilaydi.

28. Xarid komissiyasi ishtirokchilarga tanlovda qatnashishiga ruxsat berish haqidagi masalani hal qilish maqsadida ular tomonidan taqdim etilgan materiallar asosida ishtirokchilarning malakaviy tanlovini o‘tkazadi.

Bunda quyidagi ishtirokchilarning tanlovda qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi va bu haqda tegishli qaror qabul qilinadi:

qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik jarayonida bo‘lgan;

Hokimlik bilan sud yoki arbitraj orqali nizolashayotgan;

Insofsiz ijrochilar yagona reestridda mavjud bo‘lgan;

soliq va boshqa majburiy to‘lovlardan qarzi bo‘lgan;

Xarid komissiyasining boshqa tijorat va moliyaviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha talablariga javob bermaydiganlar.

29. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflar bo‘lgan elektron tizim orqali yuborilgan takliflarni asosli baholash, ularni ko‘rib chiqish va ma’lumotlarni sir saqlash qoidalariga rioya qiladi.

30. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflar bo‘lgan elektron takliflarni ko‘rib chiqish vaqtini belgilaydi. Tanlovga oid takliflar bo‘lgan takliflarni ko‘rib chiqish Xarid komissiyasi tomonidan elektron raqamli imzo orqali tasdiqlagan tarzda amalga oshiriladi.

31. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni ko‘rib chiqish muddatini belgilaydi. Tanlov ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash muddati

takliflarni taqdim etish muddati tugagan vaqtdan boshlab o'n kundan oshishi mumkin emas.

32. Takliflarni ko'rib chiqish davomida ishtirokchilar taqdim etgan barcha hujjatlar va tijorat taklifining narxi shaffofligi tekshiriladi.

33. Xarid komissiyasi kelib tushgan takliflarni to'g'ri kelishini bat afsilo'r ganish va xulosa tayyorlash maqsadida Xarid komissiyasi a'zolari, hokimlik mutaxassislari orasidan ishchi guruh tuzishi mumkin, shuningdek, zarurat bo'lganda manfaatdor tashkilot va idoralarning mutaxassislarni jalg qilishi mumkin.

Komissiya tanlovga oid takliflarni baholash uchun ekspert va maslahat beruvchi hokimlik vakillarini jalg qilishi mumkin.

34. Xarid komissiyasi tanlov savdosi g'olib va zaxiradagi ishtirokchilar, shartnomani imzolash muddati haqida qaror qabul qiladi.

35. Xarid komissiyasi tanlovga oid takliflarni baholashni va Xarid komissiyasi tomonidan o'rnatilgan mezonlar asosida g'oliblarni aniqlashni amalga oshiradi.

Taqdim etilgan tanlovga oid takliflarning qo'shimcha texnik, tashkiliy va tijorat ustunligi, shuningdek, tanlov ishtirokchisining nufuzi inobatga olinishi mumkin.

36. Xarid komissiyasi taqdim etilgan takliflarning tanlov savdosini o'tkazish tartib-taomilining shaffofligini ta'minlashi zarur.

37. Xarid komissiyasining barcha qarorlari Xarid komissiyasi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganida Xarid komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi bo'ladi.

38. Xarid komissiyasining barcha majlislari va qabul qilingan qarorlari bayon nomalar bilan rasmiy lashtiriladi. Bayon nomalar Xarid komissiyasining hozir bo'lgan a'zolari tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolanishi va Xarid komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

39. Xarid komissiyasining har bir a'zosi Xarid komissiyasining ish jarayonida qaror qabul qilishi shart, qaror qabul qilishda betaraf bo'lishga yo'l qo'yilmaydi.

Ovoz berish ochiq tarzda amalga oshiriladi. Yashirin tarzda ovoz berish va Xarid komissiyasining a'zolari tomonidan o'z vakolatlarini boshqa shaxslarga berishlariga yo'l qo'yilmaydi.

40. Xarid komissiyasi majlislarida tanaffuslarga yo'l qo'yiladi. Xarid komissiyasi majlisini bir kun davomida ko'chirish tanaffus bo'lib hisoblanadi.

Xaridlarning ommaviy tartib-taomilini o'tkazishda tanaffus e'lon qilishga faqat xaridlar lotlari orasida yo'l qo'yiladi.

41. Yengib bo‘lmas kuch holatlaridan tashqari Xarid komissiyasi majlisining muddatini boshqa kunga o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

42. Xarid komissiyasi quyidagi hollarda tanlovni o‘tmagan deb topadi:

tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda;

takliflarni taqdim etish muddati tugaydigan kunga kelib tanlov ishtirokchilaridan ikkitadan kam takliflar kelib tushgan bo‘lsa;

kelib tushgan takliflar savdo obyektining tanlov hujjatlari shartlariga javob bermasa;

tanlov ishtirokchilari tomonidan taklif etilgan narxlar tanlov savdolarining eng yuqori bahosidan oshib ketsa.

6-bob. Xarid komissiyasining javobgarligi

43. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o‘zi tomonidan qabul qiladigan quyidagi qarorlarning asoslantirilganligi va xolisligiga, jumladan:

Xarid komissiyasi tarkibida kvorum bo‘lmasdan turib qaror qabul qilganligi;

tanlov ishtirokchilari intellektual mulkining daxlsizligi yoki tijorat siriga bo‘lgan huquqi buzilganligi;

tanlov ishtirokchilarini tanlovni o‘tkazish tartib-taomillarida qatnashishdan asossiz chetlatilganligi;

yopiq ahamiyatga ega bo‘lgan tartib-taomilga oid masalalar natijalarini ochiq muhokama qilganlik va ko‘rib chiqqanlik, maxfiy axborotni oshkor qilganlik, tanlov ishtirokchilari yoki jalb etilgan mutaxassislar bilan til biriktirganlik, shuningdek, boshqa noqonuniy xarakatlarni sodir etganlik;

Xarid komissiyasining ochiq majlisida tanlov g‘olibini aniqlaganlik, tanlov g‘olibini e’lon qilish tartib-taomilini buzganlik, hozir bo‘lmagan tanlov ishtirokchilariga o‘z vaqtida habar bermaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

44. Xarid komissiyasi tanlov (tender) g‘olibini ishtirokchilar orasidan aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, o‘zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg‘arazligi uchun javobgar bo‘ladi.

45. Xarid komissiyasi davlat xaridlaring boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan xarakatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

46. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning buzilishida aybdor bo‘lgan xarid komissiyasi a’zolari O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Buvayda tumani hokimining
2025-yil 17-apreldagi
54-11-154-F/25-son farmoyishiga
2-ilova

Tuman hokimligining xarid komissiyasi

TARKIBI

- | | | |
|------------------|---|--|
| D.Maxsitaliyev | - | Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari,
komissiya raisi; |
| Lavozimiga ko’ra | - | Tuman hokimligi Ishlar boshqaruvchisi,
komissiya raisi o‘rinbosari; |
| SH.Aliqulov | - | Tuman hokimligining Devonxona kotibiyati mudiri,
komissiya a’zosi; |
| A.Shokirov | - | Tuman hokimligi Axborot-xizmati rahbari,
komissiya a’zosi; |
| Lavozimiga ko’ra | - | Tuman hokimligi bosh xisobchisi, komissiya
a’zosi; |
| A.Dadaboyev | - | Tuman hokimligi bosh mutaxassisi
komissiya kotibi. |

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o’tkazilganda yoki lavozimidan ozod qilinganda, shuningdek mehnat ta’tilida, xizmat safarida hamda vaqtinchada mehnatga layoqatsizlik davrida Komissiya tarkibiga ularning lavozimlariga tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalar yuklatilgan shaxslar kiritiladi.